

INSON SALOMATLIGI VA KIMYO

Jalolov I.J., Nishonov M.

Oblayorova T.T. Farg‘ona davlat universiyeti talabasi

Kalit so‘zlar. Rezavor, kamfora, glyukozydlar, sulfopreparatlar, vitaminlar.

Tarixga bir nazar solsak, insoniyat o‘z hayot faoliyatida doimo sog‘lom turmush tarziga muxtoj bo‘lgan bu borada tinmay izlanishlar olib borgan. Chunki inson uchun sog‘lom turmush tarzi, sog‘liqni saqlash va uni tiklash muammosi doimo kun tartibida bo‘lgan. Natijada bir qator olimlar o‘z kashfiyotlari natijasida hosil qilgan mahsulotlarining texnikada qo‘llanishiga talab ortgan, kimyo va tibbiyot kabi fanlar juda tez rivojlanib ketgan.

XIX asrning 60-yillariga kelib organik moddalarni sintez qilish kichik laboratoriya miqyosidan chiqib, texnika rivojlanishi natijasida joriy qilingan zavodlar talabiga xizmat qilish tomoniga o‘tdi. Chunki bu davrlarda zavodlar fan yutuqlarini tekshiradigan, takomillashtiradigan eksperimental laboratoriyalarga aylangandi. Ularning talabini qondirish uchun fan tez o‘sishi talab qilinardi. Natijada kimyo fanining turli tarmoqlari paydo bo‘la boshlagan.

Qadim zamonlarda o‘lat, vabo, tif, qora chechak, qizamik va bezgak kabi kasalliklar epidemiyasi millionlab kishilarning yostig‘ini quritar va xatto butun bir mamlakatlarni kimsasiz qoldirar edi. 2019 yilda tarqalgan koronavirus kasalligi ham epidemiyadan pandemiyaga aylandi. Butun dunyo axolisi boshiga katta tashvishlar keltirdi.

Insoniyat qadim zamonlardan beri turli kasalliklarga qarshi turli moddalardan foydalanib kelgan. Masalan, o‘t, o‘simliklarning barglari, po‘stloqlari, ildizlari, gullari, rezavor mevalar [1]. Lekin bu ishlar ilmiy tavsifga ega bo‘lmagan, albatta.

Misir, Xindiston, Gretsiyada hamda O‘rta Osiyoda qadim zamonlardan buyon o‘simlik va hayvonlardan, mineral moddalardan olinadigan dorivor moddalar ma‘lum bo‘lgan. Masalan, simobni eramizdan ilgari xitoy va hind tabiblari teri kasalliklarini davolashda ishlatgani ma‘lum. O‘rta asr alximiklari xalk tabobati taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Chunki ular har qanday kasallikni davolaydigan, inson umrini uzaytiradigan va oddiy metalni oltinga aylantiradigan «falsafa toshini» izlashlari natijasida bir qancha moddalarni kashf qildilar. Nemis vrachi Paratsels vino spirti bilan sulfat kislotani sintez qildi va hosil bo‘lgan moddani «oltingugurt» deb atadi va uning tovuqqa ta‘sirini o‘rgandi. Bu modda ta‘sirida tovuqlar uxlab qolishi va ma‘lum vaqt o‘tganidai so‘ng ularning zararsiz uyg‘onishlarini kuzatdi, uning shirin tamini va davolash vaqtida og‘riqni qoldirishini aniqladi. Lekin uning zamonida bu moddaning inson organizmiga ta‘siri o‘rganilmay qolib ketdi. Bu modda hozir organik kimyoda ma‘lum bo‘lgan efirdir. 1847 yildan boshlab mashhur rus xirurgi N.I. Pirogov efirni birinchi bo‘lib narkoz sifatida qo‘llash mumkinligipi asosladi. Shu davrdan boshlab ilmiy kimyoning asoschisi M.V. Lomonosovning g‘oyalari ilmiy asoslandi. U o‘zining «Slovo o polze ximii» nomli kitobida (1751 yil) Tibbiyot ilmini tashkil etuvchi davolash tartibi tuzishni ilgari surdi. M.V. Lomonosov “Shifokor, kimyoni yetarli bilmasdan turib kamolotga erisha olmaydi”, degan edi.

Hozirgi davrda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlar tufayli ajoyib xususiyatlarga ega bo‘lgan efir moylari, kamfora, glyukozydlar, sulfopreparatlar, vitaminlar sintez qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Капранов В, Хошим Р. Мудрость веков. Душанбе, изд-во Ифрон, 1981.